ONA TILI VA ADABIYOT

1.

Imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

A) *tadorrik, taraddud, taraqqiy*

B) *muassasa, mutasaddi, muarrix*

C) *tajovuz, tarovat, ta’zarru*

D) *metall, minerall, minimal*

2.

Berilgan gapda raqamlab ko‘rsatilgan qaysi bandlarga oid **xatolik kuzatilgan**?

Onlayn dars mashg‘ulotlariga bo‘lgan ehtiyoj mediamadaniyatni shakllantirish zarurligini ko‘rsatdi, zero tarqatilayotgan har qanday mediamatn yoki reklama-roligi shaxs yoki jamiyatning turmush tarzi, ma’naviyati, qadiryatlari va me’yoriy xulq-atvorini namoyon etadi.

1	2	3	4
unli yoki undosh harflar imlosiga oid	asos va qo‘shimchalar imlosiga oid	qo‘shib yozish imlosiga oid	chiziqcha bilan yozish imlosiga oid

A) *3 va 4* B) *1 va 3* C) *1 va 4* D) *2 va 3*

3.

Qaysi javobda o‘zaro ma’nodoshlik hosil qila oladigan va nutqda almashtirib qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zlar keltirilgan?

A) *muhlat* — *vaqt* — *payt*

B) *muhtasham* — *muazzam* — *hasham*

C) *tasodif* — *voqea* — *hodisa*

D) *monand* — *muvofiq* — *yarasha*

4.

Qaysi javobda so‘zning leksik tahlili **XATO** berilgan?

A) *sinonimi: qattiq* — **chuqur** — *antonimi: yuza*

B) *sinonimi: ravshan* — **oson** — *antonimi: ulkan*

C) *sinonimi: sipo* — **og‘ir** — *antonimi: oddiy*

D) *sinonimi: xasis* — **pishiq** — *antonimi: anoyi*

5.

Qaysi gapdagi yasama so‘zning morfem tarkibida **uslubiy xato kuzatilgan**?

A) *Rustam gapning ma’nisini tushunadigan, mulohazakor, serfahm, o‘yli, aqlli yigit edi.*

B) *Shahar ulamo va ashroflari: “Bu qanday bemazalik?! Bir benom-u nishonga buncha iltifot?!” – der edilar.*

C) *Peshtoqda zavqli, serhafsala ustaning mo‘jizakor san’ati o‘z jozibasini namoyish etib turardi.*

D) *Olmosdek serqirra, oftobda cho‘qqilari yarqirab turgan qorlik tog‘lar sari yaqinlashib borar edik.*

6.

Qaysi javobda so‘z qo‘llash bilan bo‘g‘liq **xatolik mavjud**?

A) *Jimirlab oqayotgan daryoning yoqimli salqinidan ko‘ngillar yayraydi.*

B) *Salkam ikki yuz yoshga kirgan mana shu azim chinor niholining g‘adir-budur tanalarini siladi.*

C) *O‘ziga tikilib turgan odamlardan ko‘zlarini olib qochdi.*

D) *Mana, ne kuyga tushganimni ko‘ring, axir ne yozug‘im bor ediki, bu balolarga giriftor bo‘ldim.*

7.

Ushbu gapdagi qo‘shimchalar haqida berilgan **XATO hukmni aniqlang**.

Bog‘dan sayroqi qushlarning ovozi, sochlariga jamalak taqib, boshiga iroqi do‘ppi kiyib quvlashmachoq o‘ynayotgan qizlarning qahqahasi eshitiladi.

A) *Ot, sifat, fe’l yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etgan.*

B) *O‘zaro shakldosh so‘z yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etgan.*

C) *Sintaktik shakl yasovchi va so‘z yasovchi qo‘shimchalar shakldoshligi kuzatilgan.*

D) *Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchaning taqlid so‘zga qo‘shilishi kuzatiladi.*

8.

Gaplardagi fe’l turkumiga mansub so‘zlar haqidagi **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

Meningcha, hozirgi yoshlar maqsadlarini yo‘qotmagan, ular maqsadlarini parchalab yuborganlar. Fikrimcha, bugungi dunyoda bu – muqarrar holat. Men qadriyatlarga e’tibor susaygan sharoitda noaniq maqsad ketidan yurgan odamlar haqidagi voqealarni yozaman.

A) *Barcha sof fe’llar xabar mayli shaklida qo‘llangan.*

B) *Barcha sof fe’llar yasama so‘zlar bilan ifodalangan.*

C) *Otlashgan sifatdoshlar munosabat shakllari bilan qo‘llangan.*

D) *Ikki o‘rinda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi ishtirok etgan.*

9.

Gaplardagi ot turkumiga mansub so‘zlar haqidagi **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

Mening ishim – yozish, tanqidchilarning vazifasi esa tanqid qilish. Tanqidchilar hamma vaqt yozuvchilarga yordam berishgan. Men romanlarim haqidagi tanqidchilarning fikrlaridan xafa bo‘lganim yo‘q.

A) *Parchada tub va yasama shaxs otlari ishtirok etgan.*

B) *Otlar shaxs, narsa va payt ma’nolarini ifodalab kelgan.*

C) *Parchada atoqli va turdosh shaxs otlari ishtirok etgan.*

D) *Otlarga xos lug‘aviy va munosabat shakllari ishtirok etgan.*

10.

Ushbu gapdagi **tobe bog‘lanishlar** to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.

Zamonamizning yirik fiziologlaridan biri, kanadalik olim Gans Sele, o‘zining yaqinda chop etilgan bir kitobida ana shunday muammoni o‘rtaga tashladi.

A) *kanadalik Gans Sele, olim o‘rtaga tashladi*

B) *fiziologlaridan biri o‘rtaga tashladi, o‘zining kitobida*

C) *o‘rtaga tashladi, yirik olim*

D) *biri Gans Sele, yaqinda chop etilgan*

11.

Ushbu gap haqida berilgan **to‘g‘ri hukmni aniqlang**.

Bu institut, bilsangiz kerak, barcha paxtakor respublikalar bilan, hatto xorij bilan ham paxtachilikni rivojlantirish bobida hamkorlik qiladi, paxtaning yangi navlarini yetishtirib beradi.

A) *Ajratilgan hol ishtirok etgan.*

B) *Gapda kiritma ishtirok etgan.*

C) *Kesimning ifodalanishiga ko‘ra ikki turi ishtirok etgan.*

D) *Holning ikki ma’no turi ishtirok etgan.*

12.

Raqamlab ko‘rsatilgan qaysi gaplarda **vergul belgisi** bir xil punktuatsion qoida asosida qo‘llangan?

1. Bamisoli qalam emas, men sizga aytsam, ovozsiz o‘qday gap bu!
2. Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi.
3. Enaxonning onasi, o‘zi pakana va uning ustiga bukchaygan kampir, o‘yin qilgan bo‘lib hammani kuldirdi.
4. Odam biryo‘la ham muhabbatidan, ham do‘stidan ajralib qolishi yomon bo‘lar ekan.
5. Bugungi tahlikali zamonda, o‘zingiz bilasiz, ehtiyotkorlik juda zarur.

A) *1 va 5* B) *2 va 4* C) *3 va 4* D) *2 va 5*

13.

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidan keltirilgan parcha haqidagi **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

Devorda osig‘liq ulkan bitiktaxta taraq etib tushdi. Bitiktaxtada qolmish bitikka ko‘zim tushdi:

5-sentabr
Sarlavha: “Sovet xalqi 1980-yilda kommunizmda yashaydi”

Bolalar bitiklarni ovoz chiqarib-ovoz chiqarib o‘qiydi. “Bechoralar, – deydi. – Bu yil haqidan bor-yo‘g‘i besh kun o‘qibdi-ya! Qaytanga, biz maza qilibmiz – bir oy o‘qibmiz”.

A) *Mustamlaka o‘lkaning ma’naviy tanazzulga ro‘para qilingani ifoda etilgan.*

B) *Millatning hukumatga bo‘lgan ishonchi, yorug‘ kelajakdan umidvorligi aks etgan.*

C) *Millat farzandlarining ilm-ma’rifatga loqaydligi tanqid ostiga olingan.*

D) *Savodsizlikka qarshi kurash, hukumatning ta’limga e’tibor qaratganligi ifoda etilgan.*

14.

Aziz Nesinning "Demokratiya shunqori" hikoyasi mazmuniga mos to‘g‘ri javobni **aniqlang.**

A) *Qahramonning barcha xatti-harakatlari demokratik jamiyatga xos xususiyatlarni namoyon etadi.*

B) *Demokratiya ba’zan qadriyatlar tahqirlanishiga sabab bo‘lishi ta’kidlangan.*

C) *Bo‘rttirilgan tasvirlar orqali matbuotning mantiqsiz faoliyati masxara qilingan.*

D) *Har qanday davrda matbuot jamoatchilikni chalg‘itish vositasiga aylanishi hajv qilingan.*

15.

Jorj Oruellning "Molxona" qissasi mazmuniga **MOS BO‘LMAGAN** javobni aniqlang.

A) *Totalitar tuzum xalqning ishonchini orsizlarcha suiiste'mol qilishi mumkinligi ta'kidlangan.*

B) *Ikki avlod tafakkuridagi farq oqibatida yuzaga keladigan nizolar majoziy obrazlar vositasida tasvirlangan.*

C) *Haq-huquqlarini bilmaydigan insonlarning kelajagi xavf ostida qolishi ifodalangan.*

D) *Ilmsizlik insoniyatni tanazzulga yetaklovchi illat sifatida ko‘rsatilgan.*

16.

Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasidan keltirilgan parcha haqidagi **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

QO‘CHQOR: *O‘ylasa, yaxshi-ku, Olimtoy.*
OLIMJON: *Yaxshimish! Robot o‘ylasa, fikr qilsa, bilasizmi, nima bo‘ladi?*
QO‘CHQOR: *Nima bo‘ladi?*
OLIMJON: *Qiyomat-qoyim bo‘ladi! Aytdim-ku, hali Alomatga o‘xshagan robotlar ming-minglab yaratiladi. Millionlab yaratiladi! Endi bir tasavvur qiling: millionlab robot kallasini ishlatsa, o‘ylasa! Xudoning o‘zi asrasin-u, unda oxir zamon bo‘ldi deyavering! Ular borib-borib o‘zining hozirgi ahvolidan norozi bo‘la boshlaydi! Tushunib qoladi-da! “Nega endi ularning inon-ixtiyori o‘zida-yu, men manavinaqa programmalashtirilgan mikrosxemalarga bo‘ysunishim” kerak deydi! Tushunyapsizmi, gap qayerda?!*

A) *O‘zbek xalqining fan va texnologiya taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tilga olingan.*

B) *Mustabid tuzum yuritayotgan siyosatning asl mohiyati bayon etilgan.*

C) *Sodda traktorchi ruhiyatidagi o‘ziga xos o‘zgarishlar yumor bilan ifoda etilgan.*

D) *Fan va texnika taraqqiyotidan ortda qolgan xalqqa achinish ifoda etilgan.*

17.

Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasidan keltirilgan parcha haqidagi **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

– O‘qiysanmi?
– Beshinchida... Tushdan keyin maktabga boramiz. Hey keyinroq ko‘rak chuviymiz.
– O‘qish nima bo‘ladi?
– To‘xtaydi! – deb kuldi u. – Kelasi yildan paxtaga chiqamiz! Men hozir ham paxta teraman. Opamga terishaman... Kitob? O‘qiyman. “Robinzon Kruzo” bor. Bitta feldsher tashlab ketgan. O‘tgan yili... Ukamni ko‘rgani kelgandi... Men yig‘ladim. Keyin shu kitobni berdi. Yaxshi kitob!

A) *Hukumatning eng dolzarb pallalarda ham xalq ta'limi va uning ma'rifatiga bee'tibor bo‘lmaganligi ifoda etilgan.*

B) *Paxta terimiga siyosiy tus berilishi oqibatida xalq ilm-ma'rifatdan ruhan yiroqlashib, savodsizlik avj olgani aks etgan.*

C) *Siyosiy-mafkuraviy ta'sir ostida qolgan millatning hayoti, ma'naviyati va uning taqdiri tahlika ostida qolishiga ishora qilib o‘tilgan.*

D) *Ta'lim sohasidagi muammolarga e'tiborsizlik oqibatida bolalarning ilm-ma'rifatga loqaydligi ortgani aks etgan.*

Matnni o‘qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

PAXTA

1

Paxta g‘o‘za o‘simligidan olinadigan tola va chigitdan iborat arzon va keng tarqalgan xom ashyodir. Butun dunyoda tayyorlanadigan barcha to‘qimachilik tolalarining qariyb yarmidan ko‘prog‘ini paxta tolasi tashkil etadi. Paxta O‘rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Misr, Peru va Meksikada qadimdan ma’lum. Hozirgi O‘zbekiston hududida miloddan avvalgi VI–V asrlardan boshlab g‘o‘za yetishtirilib, paxta tolasidan ip yigirilgan va gazlama to‘qilgan. Paxta tolasining uzunligi, pishiqligi, ingichkaligi va elastikligiga qarab narxlanadi. Paxta o‘rta tolali va ingichka tolaliga bo‘linadi. Ochilgan ko‘saklardan paxta qo‘lda va paxta terish mashinalari yordamida terib olinadi. Lekin g‘o‘za ko‘saklari bir vaqtda ochilmaydi.

2

Paxta tozalash zavodlarida maxsus mashinalar tolani chigitdan ajratib oladi, shuningdek, paxtadan chigit, lint, momiq va tuk (5 millimetrdan kalta tuk qoplami) ham olinadi. O‘rtacha olganda paxta zavodlarida 100 kilogramm paxtadan 34–35 kilogramm tola, 1 kilogramm momiq, 62 kilogramm chigit olinadi. O‘z navbatida shuncha chigitdan 11 kilogramm paxta moyi, 22,5 kilogramm kunjara, 17,5 kilogramm shulxa, 3,5 kilogramm lint, 3 kilogramm tuk (delint) chiqadi. Keyin tolalar toylanib, yigiruv fabrikasiga yuboriladi. U yerda toladan ip yigiriladi, to‘quv fabrikalarida paxta ipidan chit, batist, markizet, satin, paxmoq va trikotaj kabi gazlamalar ishlab chiqariladi.

3

Sellyuloza, fotoplyonka, qog‘oz singari materiallar, shuningdek, texnikada qo‘llaniladigan paxta va chidamli to‘qimalar ham paxtadan tayyorlanadi. Chigitdan esa yog‘ olinadi. Paxta yog‘i ovqatga ishlatiladi, undan konserva sanoatida va margarin ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bundan tashqari paxta yog‘i sovun pishirishda qo‘llaniladi, undan glitserin, stearin olinadi. Chigitning yog‘i siqib olingandan keyin qoladigan kunjarasi – mollarga ozuqa. Gidroliz sanoatida chigit po‘sti – shulxasi esa etil va metil spirti tayyorlash uchun ishlatiladi. G‘o‘zapoyasidan qog‘oz, karton, plitalar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Shuningdek, maxsus ishlov berish yo‘li bilan chorvachilik uchun ozuqa moddalar tayyorlanadi. G‘o‘za bargidan olma kislotasi, limon kislotasi olish mumkin. To‘qimachilik sanoatida paxtaning muhim o‘rni bor.

4

Paxtadan yana qanchadan qancha mahsulotlar olinadi va tayyorlanadi. Umuman, paxtadan olinadigan mahsulotlar asosida sanoat usulida 1200 dan ko‘proq turli mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. Hozirgi davrda jahondagi 86 mamlakatda paxta ekiladi, paxtazorlarning umumiy maydoni o‘rtacha 35 million gektarga boradi. Har yili 50 million tonna paxta yig‘ib olinadi, ulardan esa 19 million tonnadan ortiq paxta tolasi tayyorlanadi. Jumladan, O‘zbekistonda 4 million tonnaga yaqin paxta yetishtiriladi va undan 1,5 million tonnaga yaqin tola olinadi. O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha jahonda Xitoy, AQSH, Hindiston, Pokistondan keyin 5-o‘rinda, paxta tolasini boshqa mamlakatlarga sotish bo‘yicha AQSHdan keyin 2-o‘rinda turadi.

18.

Matnda **aks etgan** ma'lumotni aniqlang.

A) *Paxta tolasining sifatiga qarab baholanadi.*

B) *Dunyoda qo'lda terilgan paxta sifati jihatdan yuqori baholanadi.*

C) *Paxta tolasining ingichkaligi qanday g'o'za navidan olinganiga bog'liq.*

D) *O'zbekiston oliy navli paxta yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rinda turadi.*

19.

Matnda **AKS ETMAGAN** ma'lumotni aniqlang.

A) *Paxta o'simligidan tibbiy mahsulotlar ham ishlab chiqariladi.*

B) *Paxta bir necha terim orqali yig'ishtirib olinadi.*

C) *Paxta yer yuzidagi eng arzon mahsulot sifatida tan olingan.*

D) *Paxtachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri sanaladi.*

20.

Matn mazmuniga **mos ravishda to'g'ri shakllantirilgan** gapni aniqlang.

A) *Paxta tolasini chigitdan ajratib olish qo'lda amalga oshirilmaydi.*

B) *Paxta tolasidan limon kislotasi, olma kislotasi ishlab chiqariladi.*

C) *Paxtachilik rivojlanishida paxta terish mashinalari eng muhim rol o'ynaydi.*

D) *Paxtadan kinosanoat mahsulotlari ham ishlab chiqariladi.*

21.

Matnda **aks etgan** ma'lumotni aniqlang.

A) *Paxtadan tayyorlangan kiyim-kechaklar inson salomatligi uchun foydali.*

B) *Paxtadan o'quv mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladi.*

C) *Yurtimizda paxtadan sanoat usulida 1000 dan ortiq mahsulot ishlab chiqariladi.*

D) *O'zbekiston, asosan, paxta yetishtirish bilan shug'ullanadi.*

22.

Matnning qaysi raqam bilan ajratib ko'rsatilgan qismida matn tuzilishida **uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan jumla mavjud**?

A) *3* B) *1* C) *2* D) *4*

Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

NOYOB MIKROB

Hamisha qovog‘idan qor yog‘ib turadigan professor bir gala assistent-u talabalarini ergashtirganicha shitob bilan palataga kirib keldi. U shu yerdagi ko‘z kasalliklari klinikasining mudiri bo‘lib, nihoyatda qattiqqo‘l, qo‘rs, tund va sovuq odam bo‘lgani uchun olimdan ko‘ra ko‘proq birinchi jahon urushi paytidagi generallarga o‘xshab ketardi. Faqat shogirdlari bilan assistentlargina emas, balki yaqin oshna-og‘aynilari ham undan hayiqib turishardi, ko‘z ko‘zga tushgan mahalda iloji boricha tezroq juftakni rostlab qolish payida bo‘lishardi. Aslida u bir talay ixtirolar-u ilmiy asarlarning muallifi, qator-qator tibbiy va ilmiy jamiyatlarga saylangan olim, xullas, tibbiyot olamida dong taratgan zo‘r mutaxassis edi. Shunga ko‘ra, hammalari uning hurmatini bajo keltirib yurishardi.

Odatda u palataga kirgach, bemorning oldida bir nafas to‘xtab, darrov ikkinchisiga o‘tib ketar, assistent vrachlar esa uning kutilmaganda bir nimani so‘rab qolishidan cho‘chib, doim tipirchilab turishardi.

– Bunisi yangimi?

– Ha, domla, kecha olib kelishdi, – dedi shosha-pisha chap tomondagi assistent.

– Kasali nima ekan?

– Haligacha aniqlayolmadik. Ikkala ko‘zida sanchiq turgan, tinimsiz boshi og‘riydi.

Professor iztirob ichida to‘lg‘anib yotgan bemorning qontalash ko‘zlariga bir zum tikilib turdi-da:

– Analizlar? – deb ming‘irlab qo‘ydi.

– Bo‘ldi, domla.

– Pis...

Atrofdagilar kamgap professor “tekshirib ko‘rish uchun bemorning ko‘zidan nazla olinglar”, demoqchi bo‘lganini darhol payqashdi.

Professor xonasiga kirib ketdi. Assistentlar ertalabki bemor ko‘rish marosimidan osongina qutilganlari uchun yengil nafas olishdi.

Ikki assistent kasal ko‘zdan nazla olgach, professorga eltib berishdi. Professor mikroskopga egilib, anchagacha nazlani kuzatib turdi. Nihoyat, boshini ko‘targanida lablarida tabassum jilva qilardi. Necha yillardan beri birga ishlab, biror marta ham tishining oqini ko‘rmagan assistentlar uchun bu kutilmagan yangilik bo‘ldi. Shundan keyin professor javonda turgan semiz-semiz kitoblardan bir dastasini olib, shosha-pisha ichini titkilay ketdi. O‘qtin-o‘qtin uning “xuddi o‘zi”, “o‘sha”, “hm” degan so‘nik ovozi eshitilib turdi.

– Qani, darrov vrachlarni chaqiring, talabalar ham kelishsin, – deb buyurdi u oyoqda qimir etmay turgan ikkala assistentga.

Xona ichi bir zumda to‘lib ketdi. Hamisha to‘rsayib yuradigan professorni hozir tanib bo‘lmasdi. U bayram kuniga bir quchoq sovg‘a-salom olgan yetim boladay o‘zida yo‘q xursand edi. Kap-katta odam o‘ziga yarashmagan qiliqlar qilar, azbaroyi jazavasi tutib, yuragi hapriqib ketganidan mikroskop atrofida chir-chir aylanardi.

– Yigitlar, – dedi u entikib. Assistent va talabalariga u hamisha shunday deb murojaat qilardi, – omadni qarang, omadni... Zo‘r omad bu! Biz noyob, g‘oyatda noyob mikrobga duch keldik. Bu juda-juda kam uchraydigan tasodif. Uni bir ko‘rish orzusida yurgan ko‘z doktorlari ozmunchami... Sizlar baxtli ekansiz, hali student bo‘la turib, shu sharafga muyassar bo‘ldingiz. Bu mikrob bir million, hatto besh million bemorning ichidan faqat bittasida uchrashi mumkin...

Professor terisiga sig‘may, hadeb qo‘llarini ishqar, har gapning birida nuqul “noyob mikrob” deb qo‘yardi.

– Men o‘zim bu mikrobni umrimda ikkinchi marta ko‘rishim. Ilk bor Parijda mengayam professorim ko‘rsatgan edi. Afrikalik bir zanjini olib kelishuvdi... Bu mikrob odamga o‘tgandan keyin darhol qirq sakkiz soat ichida operatsiya qilinmasa, ko‘z ko‘r bo‘lib qoladi. Shuning uchun hoziroq chora-tadbir ko‘rish kerak. – U assistentlardan biriga yuzlandi. – Xo‘sh, og‘riq qachon boshlanibdi?

– Kecha erta bilan. Kasalxonaga kechqurun olib kelindi.

– Shundaymi... Darhol operatsiyaga kirishilmasa, yigirma to‘rt soat ichida ko‘zdan ajrab qolishi mumkin. Bu mikrob g‘oyat xatarli... Yosh bezlariga o‘rnashib olgach, o‘z-o‘zidan urchiydi, keyin miyadagi ko‘rish markaziga o‘tib, uni tamoman ishdan chiqaradi. Endi navbat bilan mikroskopga yaqin kelib, uni yaxshilab ko‘rib olinglar...

Assistentlar bilan studentlar birin-ketin mikroskopga yaqinlashib, noyob mikrobni obdan tomosha qilishdi. Professor esa tanish-bilish hamkasblariga telefon qilib, bu kutilmagan voqeadan barini xabardor qildi.

– Mon sher? (azizim, fr.) Favqulodda mo‘jiza! Demak, ko‘rmagan ekansiz-da?! Judayam noyob narsa! Turkiyada hali bunaqasi uchramagan. Judayam ajoyib ish bo‘ldi-da, mon sher.

“Ana, aytdim-ku sizlarga, buyam umrida ko‘rmagan ekan”, – derdi u har gal navbatdagi hamkasbiga telefon qilib bo‘lgach.

Professor yana bir talay ilmiy jamiyatlar-u kasaba uyushmalariga qo‘ng‘iroq qilib, hammasini bu yangilikdan voqif etdi. Ora-sira shogirdlariga o‘gitlar berib ham turdi.

– Bu mikrob boshqa muhitda yashay olmaydi, darhol nobud bo‘ladi. Binobarin, u yuqumli emas. Aks holda, dunyoni ko‘r bosib ketardi... Uni ehtiyot qilinglar, zinhor nobud bo‘lmasin.

Halovatini yo‘qotgan professor tushlikkayam chiqmadi, shogirdlariga noyob mikrob xususida turli-tuman topshiriqlar berdi. Ikki nafar assistent kamyob mikrobning ming karra kattalashtirilgan suratini chizadigan, qolganlari esa uning hayotini saqlab qolish uchun tegishli shart-sharoit yaratadigan bo‘ldi. Professorning o‘zi esa yana kitobga sho‘ng‘ib ketdi.

O‘sha kuni klinikada hamma noyob mikrob bilan ovora bo‘ldi. Hatto hamshiralar, enaga-yu farroshlar ham bu ishga safarbar etildi. Kasalxona tarixida birinchi marta ish kuni g‘oyat unumli o‘tgan bo‘lsa, ajab emas. Noyob mikrobning daragini eshitib, qo‘shni klinikalardan ham to‘dalashib odamlar kela boshladi. Professor tashrif buyurganlarga uning ta’rifini keltirib turdi.

Taomilga xilof ravishda shu kuni klinikada yarim kechagacha rosa ter to‘kib ishlashdi. Ertasiga professor fakultet majlislar zalida bu haqda ma’ruza qilmoqchiligini bildirdi, bunga ham hozirlik ko‘rildi.

Professor uyiga juda kech qaytdi. Jahon tibbiyoti tarixida yangi sahifa ochishi lozim bo‘lgan ma’ruza ustida tuni bilan mijja qoqmay ishladi. Ko‘zi ilingan chog‘larida ham miyasi nuqul noyob mikrob bilan band bo‘ldi. Tong yorishishi bilanoq kasalxonaga yugurdi. Darhol mikrobni surishtirdi. Demak, tirik ekan-da! Qoyil, sun’iy muhitdayam urchibdi!

Professor o‘zini qo‘ygani joy topolmay qoldi, ikki gapirib, bir kuldi, hazil-mutoyibalarni qalashtirib tashladi. O‘sha kuni ma’ruza ham zo‘r tantana bilan o‘tdi. Fakultet zaliga yig‘ilgan tumonat odam uni katta qiziqish bilan tingladi.

Noyob mikrob ustidagi tajribalar qizg‘in davom ettirildi. Professor chet ellik hamkasblari va ustozlariga ustma-ust telegrammalar yo‘llab, ularni bu yangilikdan ogoh qildi. Klinika chinakam ilmiy tekshirish markaziga aylandi. Vrachlar, assistent va studentlar zavq-shavq bilan ishga sho‘ng‘ib ketishdi.

Dum-dumaloq mikrob sun’iy sharoitda birdan ipday cho‘zilib, shakli o‘zgarib qolganini ko‘rishi bilanoq uch assistent hovliqqanicha professorning xonasiga beso‘roq kirib keldi. Professor azbaroyi jo‘shib ketganidan barmoqlarini shiqirlatib, uy ichida yo‘rg‘alab o‘ynayotgan ekan. Voqeani darhol xabar qilishdi.

– Hammani to‘planglar, – deb buyurdi u.

Xona ichi yana liq to‘ldi. Professor yig‘ilganlarni yangilikdan xabardor qilgach, bu noyob mikrob haqida kitob yozish niyati borligini aytdi.

– Xo‘sh, bemorning o‘zi qalay? – deb so‘rab qoldi u davolovchi assistentdan.

– Og‘riq to‘xtadi.

– Aniqroq qilib gapiring.

– Ikkala ko‘zi so‘qirlashdi.

– Ana, aytmadimmi, – dedi professor og‘zi qulog‘iga yetib, – agar qirq sakkiz soat ichida zudlik bilan chora ko‘rilmasa, bemor ko‘zdan qoladi, og‘riq taqqa to‘xtaydi. Bemorning ko‘zlarida o‘tgan kuni ertalab sanchiq boshlangan, hisobga ko‘ra mana bugun bosilishi kerak edi. Shunday bo‘ldimi?

– Shunday, – dedi uning gapini ma’qullab davolovchi assistent.

– Ilmda hikmat ko‘p, yigitlar. Mana, aytganim keldi...

Noyob mikrob ustidagi kuzatuvlarini davom ettirish maqsadida professor shogirdlarini ergashtirib, yengil qadam tashlaganicha to‘g‘ri laboratoriyaga kirib ketdi.

23.

Muallif "mikrobning eng noyob turi bilan xastalangan" deya aslida **kimni** nazarda tutgan?

A) *jamiyatni* B) *studentlarni* C) *tibbiyotni* D) *professorni*

24.

Asar mazmuniga oid **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

A) *Professor favqulodda iste'dod egasi bo‘lsa-da, insoniyat uchun xavfli kimsa edi.*

B) *Professorning bu kashfiyoti Turkiya tibbiyoti rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etdi.*

C) *Professor aniqlagan noyob mikrob bilan og‘rigan bemorni davolash imkoni yo‘q edi.*

D) *Professor Turkiya tibbiyoti oqsayotganidan, insonlar sog‘lig‘idan xavotirda edi.*

25.

Quyidagi parcha asosida **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

Ikki assistent kasal ko‘zdan nazla olgach, professorga eltib berishdi. Professor mikroskopga egilib, anchagacha nazlani kuzatib turdi. Nihoyat, boshini ko‘targanida lablarida tabassum jilva qilardi. Necha yillardan beri birga ishlab, biror marta ham tishining oqini ko‘rmagan assistentlar uchun bu kutilmagan yangilik bo‘ldi. Shundan keyin professor javonda turgan semiz-semiz kitoblardan bir dastasini olib, shosha-pisha ichini titkilay ketdi. O‘qtin-o‘qtin uning "xuddi o‘zi", "o‘sha", "hm" degan so‘nik ovozi eshitilib turdi.

A) *Professor vaziyat o‘ylaganidan ko‘ra jiddiyligini bilib xavotirga tushadi.*

B) *Professor davosiz dardga chora topib shuhrat topishini o‘ylab quvonadi.*

C) *Professor xavotiri tasdig‘ini topmagani uchun quvonib ketgan edi.*

D) *Professor kutilmagan muvaffaqiyatga duch kelganidan shodlanib ketadi.*

26.

Quyidagi parcha asosida **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

– Bu mikrob boshqa muhitda yashay olmaydi, darhol nobud bo‘ladi. Binobarin, u yuqumli emas. Aks holda, dunyoni ko‘r bosib ketardi... Uni ehtiyot qilinglar, zinhor nobud bo‘lmasin.

Halovatini yo‘qotgan professor tushlikkayam chiqmadi, shogirdlariga noyob mikrob xususida turli-tuman topshiriqlar berdi. Ikki nafar assistent kamyob mikrobning ming karra kattalashtirilgan suratini chizadigan, qolganlari esa uning hayotini saqlab qolish uchun tegishli shart-sharoit yaratadigan bo‘ldi. Professorning o‘zi esa yana kitobga sho‘ng‘ib ketdi.

A) *Professor bemorning hayotini saqlab qolish uchun jon-jahdi bilan urinayotgan edi.*

B) *Professor davosiz dardga duch kelib qolgach chorasiz qolib halovatini yo‘qotadi.*

C) *Professor kasallikka davo topolmasa, obro‘siga putur yetishidan cho‘chiyotgan edi.*

D) *Professor asl maqsadini unutib qo‘ygani bois inson hayotini xavf ostida qoldiradi.*

27.

Hikoya mazmuni asosida **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

A) *Har qanday ilm me'yoridan oshsa, insoniyatga kulfat keltiradi.*

B) *Inson ilmsizligini yashirishga har qancha urinmasin, fosh bo‘ladi.*

C) *Manfaatli bo‘lmagan ilm insoniyat uchun xatarli hisoblanadi.*

D) *O‘z sohasida nomukammal olim xalq oldida uyatga qoladi.*

G‘azalni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

***

[1] Dema ul chehrayi gulrang uza chashmi jodudur,
Xo‘tan gulzori ichra jilvagar sarmast ohudur.

[2] Emas mushkin qoshi ko‘z uzrakim aylab havoyi sayd,
Hamul ohu uza parvoz ko‘rguzgan itolg‘udur.

[3] Musaffo orazig‘a qatra xo‘ylarkim berur ziynat,
Tarovatbaxsh Eram gulzorida har yon suzuk suvdur.

[4] Labidin har nafaskim nuktayi dilkash bo‘lur zohir,
Sochilg‘on huqqayi yoqutdin serob injudur.

[5] Ne tong, ul chehra fikri chiqmas ersa soda ko‘nglumdin
Ki, xo‘blar orazi aksi maqomi sof ko‘zgudur.

[6] Karam aylab o‘zung yetkur harimi vasl aro, yo Rab!
Ki, sandin Ogahiyning iltimosi bor-ho budur.

LUG‘AT: itolg‘u – ovchi qush, *huqqa* – quticha, *gisu* – soch, *nukta* – so‘z, *sayd* – o‘lja.

28.

G‘azal haqidagi **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

A) *1-baytda tasdir san’ati aks etgan.*

B) *4-baytda tashxis san’ati aks etgan.*

C) *3-baytda talmeh san’ati aks etgan.*

D) *1-baytda ishtiqoq san’ati aks etgan.*

29.

G‘azal mazmunida **aks etgan** tasvirni aniqlang.

A) *Yorning ko‘zlari ohuni ovlayotgan ovchi qush singari o‘z o‘ljasini nishonga oladi.*

B) *Yorning jodugar ko‘zlariga oshufta oshiq ko‘ngli Xo‘tan gulzori ohusi misol sarmastdir.*

C) *Oshiqning ko‘zgu singari pokiza qalbida har lahzada yor yodi aks etib turadi.*

D) *Yorning ko‘z yoshlari Eram gulzorida har taraf taralayotgan suv kabi musaffodir.*

30.

Quyidagi **qaysi san’atlar g‘azalda aks etgan**?

1) *ruju’* – avval berilgan fikrdan qaytib, yanada kuchliroq fikr berish;
2) *litota* – biror narsa-hodisani o‘ta kichraytirib tasvirlash;
3) *sifatlash* – narsa-hodisaning belgisini ko‘rsatuvchi so‘z bo‘lib, aniqlanmishga sifatlovchining belgisi ko‘chiriladi.

A) *1 va 2* B) *faqat 2* C) *faqat 3*
D) *2 va 3*

31.

G‘azalda quyidagi qaysi o‘xshatish **mavjud EMAS**?

A) *Yorning yuzi chamanga qiyoslangan.*

B) *Yorning so‘zlari durga qiyoslangan.*

C) *Oshiqning ozurda ko‘ngli o‘ljaga qiyoslangan.*

D) *Yorning lablari qimmatbaho toshga qiyoslangan.*

32.

G‘azal haqidagi **to‘g‘ri hukmni** aniqlang.

A) *5-bayt ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etgan.*

B) *6-bayt ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etgan.*

C) *4-bayt falsafiy-didaktik mazmun ifodalagan.*


D) *3-bayt peyzaj yo‘nalishida bitilgan bayt hisoblanadi.*

Gaplar (33, 34, 35) va sintaktik tahlilga oid izohlar (A−F)ni o‘zaro to‘g‘ri moslashtiring.

33. *G‘alayon.* *Kalkutta. 1926-yil.* *Kalkuttani quchdu g‘ulu,* *Bosh ko‘tardi olomon!* **34.** *Jeneva! Jeneva!* *Ilhom yulduzi!* *Seni tushlarimda, balki, ko‘rgayman.* **35.** *Dedi: “Nedur sanga olamda pesha?”* *Dedi: “Ishq ichra majnunliq hamisha”.*	A) *Undalma ishtirok etgan.* B) *To‘liqsiz gap ishtirok etgan.* C) *Uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan.* D) *Kirish gap ishtirok etgan.* E) *Atov gap ishtirok etgan.* F) *So‘z-gap ishtirok etgan.*

36.

Ajratib ko‘rsatilgan **har uchala so‘z bilan ma’nodoshlik hosil qila oladigan** so‘z yozing.




Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

37.

Gapda qo‘llanishi lozim bo‘lgan tinish belgilarining **to‘g‘ri ketma-ketligini yozing**.




Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

38.

Gapdagi qaysi **QO‘SHIMCHA** uslubiy jihatdan **xato** qo‘llangan?




Javob: _____

Diqqat! Javoblar varaqasiga qo‘shimchani ko‘chirib yozing.

39.

Gapda ajratib ko‘rsatilgan birlik **qanday sintaktik vazifa bajargan**?



Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

40.

Gapdagi so‘zlarning grammatik jihatdan **to‘g‘ri** bog‘lanishini tahlil qiling.

*Bu ma’lumotlarni keltirishdan maqsad Zardushtning **[1] hayoti to‘g‘risida** yuqorida yozilgan ma’lumotlarga **[2] shubha uyg‘otish** – ishonchsizlik yoki Vatanimiz tarixini “uzaytirish” emas.*

a) [1] raqami bilan gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z qaysi so‘zga tobelanib bog‘langan?

Javob: _____

b) [2] raqami bilan ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan teng munosabatda bog‘langan so‘zni aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

41.

Gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lab, qo‘shma gap hosil qiling va quyidagi savollarga javob yozing.

1. Xalqimiz naql qiladi.
2. Gap ko‘p.
3. Umr oz.

a) 2- va 3- gaplarni mazmun va grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘laydigan yordamchi so‘zni yozing.

Javob: _____

b) mazkur grammatik vosita gaplar o‘rtasidagi qanday mazmuniy munosabatni ifodalashga xizmat qiladi?

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

42.

She'riy parchani o'qing va va quyidagi savollarga javob yozing.

Ochiq chehrangni to ko'rdi dema, ey gul, ochilmishdur,
Xijolat g'oyatidin aylamish kulgu ayon g'uncha.

Shitobon bo'lma, rif'at qullasig'a to kun ermassen,
Kamin aylab yotibdur yo'lda ***sheri osmon****, g'uncha.*

LUG'AT: shitobon – yuguruvchi, *rif'at* – yuksaklik, *qulla* – cho'qqi, *kamin* – pistirma.

a) g'unchaning ochilishining sababi qanday she'riy san'at asosida ifoda etilgan?

Javob: _____

b) parchadagi sheri osmon obrazi qanday tushunchani ifodalashga xizmat qilgan?

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

43.

She'riy parchaning qofiyasini tahlil qiling.

Balo tog'ig'a zo'r izhori birla,
Keturmak naqb qoqum xori birla.

a) baytdagi qofiyaning raviysini yozing.

Javob: _____

b) raviyning o'rniga ko'ra qofiya turini aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44.

To'rtlikni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

Bovujud ul yuz erur gulgunasiz,
Kim ko'rinur ollida gul gunasiz.
Yuz qizilliq yo'qturur, ey ahli zuhd,
Toki munkirsiz mayi gulguna siz.

a) she'r janrini aniqlang.

Javob: _____

b) ushbu janr qaysi she'riy san'atga asoslanadi?

Javob: _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.